

Loyiha raqami: PZ-2020042022

Loyiha nomi: “Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish”

Loyiha maqsadi:

Mazkur loyiha o'zbek tilining milliy korpusi hamda kompyuter lingvistikasi sohasining muhim manbasi hamda O'zbekistonda o'zbek va qardosh turkiy tillar ta'limi uchun lingvodidaktik (til o'rgatishga mo'ljallangan) platforma vazifasini bajara oladi. O'zbek olimlarining dunyoning rivojlangan mamlakatlari yetakchi olimlari bilan o'rnatgan ilmiy-texnik munosabatlarining jadallashuvi, hamkorlikda dolzarb ilmiy masalalar ustida izlanishlar olib borishning yo'lga qo'yilishi, yosh iste'dod egalarining nufuzli chet el universitetlari va institutlarida o'qishi yoxud malaka oshirishi turkiy tillar uchun xizmat qiladigan “Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish”ni talab etmoqda. Elektron-ma'lumotlar bazasi yaratish, sun'iy intellekt asosida o'zbek tilini qayta ishlashga: imloviy-tahrir, avtomatik ishlov berish va tarjima dasturlarini tuzishga, turli belgilar asosida qidiruvni amalga oshirish, shuningdek, turkiy tillarning o'ziga xos xususiyati, leksikologik, ta'limiy ahamiyatini oshirish; yosh avlodga o'zbek, turk, ozarbayjon, qozoq, qirg'iz, tatar tilida yaratilgan og'zaki, yozma yodgorliklar, milliy, madaniy meros namunalari elektron ko'rinishda, vatanimizning tarixi, jahonga mashhur turkiy xalqlar allomalarning hayoti va ijodi, qardosh millatlarning fazilatlari, milliy qadriyatlari, boy ma'naviyatini aks ettiruvchi matnlarni o'rgatish zarurati turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratishning dolzarbligini belgilaydi.

“Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasi” O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi bilan hamkorlikda milliy madaniy markazlar va xorijdagi vatandoshlarning jamoat tashkilotlari uchun zarur manba bo'ladi.

Loyihaning maqsadi quyidagilardan iborat:

- 1) o'zbek, turk, ozarbayjon, qozoq, qirg'iz, tatar tillari grammatikasini o'rganishning yaxlit (qiyosiy) grammatikasini yaratish;
- 2) mamlakatimizda qardosh turkiy xalqlar tillarini targ'ib qilishga bag'ishlangan elektron platforma orqali mamlakatimizdagi ichki va tashqi turizmni rivojlantirish;
- 3) turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlar qiyosiy grammatikasining multimedia dasturiy mahsulotlarini yaratish;
- 4) turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlar qiyosiy grammatikasini targ'ib qilishga bag'ishlangan platforma orqali turkiy tillar oilasiga mansub tillarni va boy milliy-ma'naviy merosini dunyo miqyosida keng targ'ib etish;

- 5) turkiy tillarda yaratilgan bebaho asarlardan yaxlit holda bahramand bo'lish, ona tilimiz boyliklarni kelajak avlodga meros qoldirish hamda tilimizning jahon global tarmog'idan o'rin olishiga erishiladi;
- 6) juda osonlik bilan kam ishlatiladigan so'z, ibora va birikmani topish, qo'llanishi va yozilishi (orfografiyasi)ni o'rganish;
- 7) O'zbekistonda ta'lim 7 tilda olib boriladi. Ko'p tilli ta'limda yo'naltirib o'qitishning imkoniyatini oshirish;
- 8) O'zbekistonda millatlararo totuvlikni mustahkamlash va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini rivojlantirishda davlat tili, ya'ni o'zbek tilining ahamiyatini,ona tilimizning sofligi, go'zalligi va ma'no-mazmunga boyligini keng yoritish hamda targ'ib qilish.